

## IDIOMATIK BIRLIKLAR RASMIY MULOQOTDA JAMOATCHILIK E'TIBORINI QOZONISH VOSITASI SIFATIDA

**Xurramova Mehriniso Akbarovna**

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

## ИДИОМАТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ КАК СРЕДСТВО ПРИВЛЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО ВНИМАНИЯ В ОФИЦИАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ

**Хуррамова Мехринисо Акбаровна**

Магистрант Термезского государственного педагогического  
института

## IDIOMATIC UNITS AS A MEANS OF GAINING PUBLIC ATTENTION IN OFFICIAL COMMUNICATION

**Khurramova Mehriniso Akbarovna**

Master's student at Termez State Pedagogical Institute



E-mail:

[mekhrinisokhurramova2201@gmail.com](mailto:mekhrinisokhurramova2201@gmail.com)

Tel: +998995462201

Orcid: 0009-0002-9716-3561

**Annotatsiya:** Ushbu maqola idiomatik birliklarning jamoa bo'lib suhbat qurish hamda omma oldida rasmiy nutq bayon etishdagi ahamiyati va jamoatchilik e'tiborini tortishdagi rolini aniqlashga qaratilgan bo'lib, aniq tahliliy yechim va xulosalarga kelish maqsadida o'rganish obyekti sifatida AQSh prezidenti janob Joe Bidenning jamoatchilik suhbatlari va nutqlari olindi. Shuningdek, ular yordamida idiomatik birlik tushunchasi, uning tilshunoslikdagi yuzaga kelayotgan muammolarni yechishdagi roli hamda vositalik xususiyatlari, idiomatik birliklarning jamoatchilik e'tiborini tortishdagi roli paradigmatic va sintaktik tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Joe Biden, nutq, jamoatchilik, idioma, idiomatik birliklar, semantik tahlil, tavsif va tasnif, fraza, frazema, frazeologik birliklar.

**Аннотация:** Данная статья направлена на определение значения идиоматических единиц в групповой беседе и публичном выступлении, а также роли привлечения общественного внимания, а также для того, чтобы прийти к четким аналитическим решениям и выводам, публичные выступления президента США г-на Джо Байдена объект исследования и выступления были получены. Также с их помощью парадигматически и синтаксически анализируются понятие идиоматической единицы, ее роль в решении возникающих проблем языкознания и ее медиасвойства, роль идиоматической единицы в привлечении общественного внимания.

**Ключевые слова:** Джо Байден, речь, публика, idioma, идиоматические единицы, семантический анализ, описание и классификация, словосочетание, фразеология, фразеологизмы.

**Annotation:** This article is aimed at determining the importance of idiomatic units in group conversation and public speaking, and the role of attracting public attention, and in order to come to clear analytical solutions and conclusions, the public speeches of the US President Mr. Joe Biden are the object of study. and speeches were received. Also, with the help of them, the concept of idiomatic unit, its role in solving emerging problems in linguistics and its media properties, the role of idiomatic units in attracting public attention are analyzed paradigmatically and syntactically.

**Key words:** Joe Biden, speech, public, idiom, idiomatic units, semantic analysis, description and classification, phrase, phraseological units.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Bugungi kunda yosh avlodning ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy savodxonligi yetuk bo'lib yetishishi uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tilshunoslik sohasida ham til jamiyatning turli sohalari va qatlamlaridagi til bilan bog'liq va yechilishi kutilayotgan ishlar birin-ketin o'z ilmiy yechimlarini topmoqda. Inson paydo bo'lganidan hozirgi kunga qadar insonlar bir guruh va jamoa bo'lib yashashga intilar ekan, ularni nazorat qiluvchi va boshqaruvchi organ mavjud va ushbu organ bugungi kunga qadar tilshunoslar tomonidan har tomonlama o'rganilib kelinmoqda. Siyosatchilar, notiqalar o'zlarining chiroyli nutqlari orqali nafaqat jamoa e'tiborini tortishi, balki ularni o'zlariga ergashtira olishlari lozim. Shu boisdan, ular odamlar oldida nutq so'zlash va ular bilan suhbatlashishga juda katta e'tibor qaratib, ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. Nutqning jozibadorligini esa, albatta, turli frazalar, iboralar, maqollar, matallar, hikmatli so'zlar va idiomatik birliklar amalga oshiradi. Biz o'z maqolamizda idiomatik birliklarning ahamiyatini ochishga harakat qildik [2].

Idioma – “A phrase which means something different from the meaning of the separate words from which is formed”, ya'ni yasama frazaning ma'nosi uni tashkil qiluvchi so'zlarning ma'nosidan butunlay boshqa bir ma'noni anglatuvchi birlik deya ta'rif berilgan. [5] Ushbu ta'rifga biz quyidagicha izoh bera olamiz: Idioma – shakliy mazmunini yo'qotuvchi ikki kichik til birliklarining birikishi oqibatida o'zga ma'no hosil qilgan bir kichik til butunligidir.

Bundan tashqari idioma konseptiga bir qator olimlar ham o'z ta'riflarini berib o'tganlar. Jumladan: V.A.Plungyan idiomatiklikni so'zni farqlovchi xususiyatlardan biri deb ta'rif bergan

bo'lsa [6], A.V. Kunin esa alohida shakllangan, turg'un birikma leksemalari butunlay yoki qisman ko'chma ma'noga ega bo'lgan til birliklari deb ta'rif berib o'tgan [4].

**ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ/LITERATURE ANALYSIS).**

Tilshunoslikda idioma, idiomatik birliklarning rivojlanish va o'rganilish ko'rsatkichlari jadal sur'atda o'sib bormoqda. Bugungi kundagi tilshunoslikning ushbu tarmog'ida yuzaga kelayotgan muammolardan biri bu kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishda idiomatik birliklarning o'rnini tashkil etish hamda sohaga oid muammolarni yechishda turli yondashuvlar berishdir. Muammo borasida bir qator xorijiy hamda mahalliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, Sh. Rahmatullayev, Z. Narimonova, Y. Penxasov, E. Umarov, I. Qo'chqortoyev, H. Qahhorova, M. Husainov, M. Ro'ziqulova, I. Anichkov, A. Reformatskiy, V. N. Teliya, A. V. Kunin, A.I. Smirniskiy, V.A. Plungyan va boshqalar frazeologiya, frazeologik birliklar, idioma va uning birliklari borasida turlicha yondashilgan ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Tahlil qilish obyekti sifatida Joe Bidenning 20.01.2021-yildagi “Inaugural speech” ya'ni “Ochilish nutqi” olinib, undagi idiomatik birliklar semantik va statistik tahlil qilinishi rejalashtirildi [2].

**MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**

Joe Bidenning ushbu kichik nutqi asosan xalqni birdamlikka va barcha qiyinchiliklarni yengishda bardoshli bo'lishga qaratilgan va tadbir ochilishidagi nutqi bo'lib, statistik tahlilga ko'ra nutqda 18 ta idiomatik birliklardan foydalanildi. Ulardan 13 tasi fe'lli idiomatik birliklar va 5 tasi otlik birliklardir. Ular:

<b>Idiomatik birlik</b>	<b>Uning o'zbek tilidagi izohi</b>
Look ahead	Oldinga qarab intilmoq, oldinni ko'rmoq
Carry out	Davom ettirmoq
Set sight on	Biror narsaga ega bo'lishga qaror qilmoq
Bottom of sb's heart	Yurakdan, chin dildan
Press forward	Oldinga davom etmoq
Waiting in the wings	Qilish uchun imkon kutish
Tear apart	Parchalamoq (guruhni)
White collar	Offis xodimi, ishchisi
Turn inward	Ichki (xarakter, ruhiyat) ga kirib bormoq
Stand in sb's shoes	Kimnidir ko'zi bilan qaramoq

Year in, year out	Yildan yilga, deyarli har yili
Broken land	Vayron bo'lgan hudud
True colours	Kimnidir haqiqiy xarakteri, asliyati
Rest in peace	Joyi jannatda bo'lish
Pass along	Avloddan avlodga o'tish nimadir
White lie	Arzimas yolg'on, zarar yetkizmaydigan
Look around	Atrofni ko'zdan kechirmoq
A time of testing	Sinov vaqti

## NATIJALAR(РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)

Yuqorida keltirilgan idiomatik birliklarni prezident janob Biden omma oldida so'zlar ekan, nutqining chin yurakdan va samimiy fikrlardan iborat ekanligini yanada ravshanlanishiga hamda aniqlashishiga asosiy tayanch ko'makdosh etib birliklarni olganligini sezish mumkin. Zero, idiomatik birliklarning nutqdagi asosiy vazifasi ularning emotsionalligini oshirishdir. Jumladan: *"If we show a little tolerance and humility, and if we are willing to stand in the other person's shoes, as my mom would say, just for a moment, stand in their shoes."*[2] jumlasiga diqqat bilan e'tibor berar ekanmiz, idiomatik birlikni insoniylik va sabrni ko'rsata bilish hamda insonlarga yordam qo'lini kerakli vaqtda bera olish kabi insoniylik xislatlarini insonlarda paydo qilish maqsadida *"stand in the other person's shoes"* birligini ishlatgan va u birliklar paradigmatic jihatdan bevosita jamoaga ta'sir qilgan. Bundan tashqari, shunchaki yordam so'rash yoki yordam berish ma'nosini beruvchi *"need a help"* yoki *"to help sb"* so'zlarni ishlatish o'rniga *"need a hand"* va *"lend a hand"* birliklarini qo'llagan, bu jamoa e'tiborini tortishga xizmat qilgan.

Xalqning ish bilan ta'minlanganlik va ishsizlik borasida so'z boshlar ekan, ishchi xodimlarni *"white collar"* sifatida, hozirda ish bilan bog'liq holatni tasvirlashda esa *"true colours"* idiomatik birliklaridan foydalangan. *"True colours"* birligi asosan insonning asl yuzini ko'rish, asl ichki xarakteridan xabardor bo'lish ma'nosini anglatga, Janob prezident ushbu birlikni maxsus vaziyatning asl holatini ko'rish ma'nosida qo'llagan va bu ham jamoaning e'tiborini o'ziga tortgan mazmunli nutq bo'lishiga xizmat qilgan.

Bundan tashqari yuqorida qo'llangan birliklarni inson bilan bog'liqligiga ko'ra:

Insonning harakati va holatiga ko'ra idiomatik birliklar: *to stand sb's shoes; to look ahead; to look*

*around; to tear apart; white collar; to lend a hand* va hokazo;

## XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Rasmiy muloqot turli siyosiy so'z o'yinlari va qochiriqlarga boy bo'lishi boshqa so'zlashuv turlaridan butunlay ajratib turuvchi asosiy xususiyatlardan biridir. Ayni shu funksiyasi esa siyosatshunos va tilshunoslarning siyosiy nutqda qo'llangan har bir so'z yoki til birligini sinchkovlik bilan tahlil etishni talab etadi. Rasmiy muloqotdan ko'zlangan maqsadlardan eng asosiysi muloqot jarayonida yetarlicha axborot yetkazib berish emas, balki o'z muqolotida jamiyatni o'ylovchi, ularning manfaatlariga to'g'ri keluvchi xatti-harakat qilinayotganligi haqida ma'lumot berishdir. Shu boisdan, siyosiy, rasmiy muloqotlar tilshunoslikning turli jabhalarida tadqiqotning asosiy obyektidir. Idiomatik birliklar qanday nutqda va ko'rinishda bo'lmasin, kishilarning his-tuyg'usiga, ruhiyatiga ta'sir etuvchi vosita sifatida ko'rinadi.

## Adabiyotlar ro'yxati (Использованная литература / References)

1. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический и лингвокультурологический аспекты (Язык, Семиотика, Культура). – Москва: Школа, Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
2. Fillmore Ch. J., Kay P., O'Connor M. C. Regularity and Idiomaticity in Grammatical Constructions: The Case of Let Alone. //Language, 1988. — vol. 64, N 3. – pp. 501-538.
3. Кунин А.В. Введение. Большой англо-русский фразеологический словарь (Introduction // Large English-Russian phraseological dictionary) – Москва: Русский язык, 1984, – 944 с.
4. Longman dictionary of English Language and Culture. Harlow, Essex, England: 1992. – 1602 p.
5. Плуныян В. А. Общая морфология: Введение к проблематике (General morphology: An introduction to the problem). – Москва: Editorial URSS, 2003. – 384 с.
6. Biden Joe Inaugural speech. Washington DC: White House, 20.01.2021. – 6 p.